# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024




№ 9

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 388 sahifa.*
*E'lon qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya,** TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi,** Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** t.f.d., prof., OʻzR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., OʻzR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri oʻrinbosari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., OʻzR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar boʻyicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
**Siddiqova Sadoqat Gʻafforovna,** p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar boʻyicha prorektor v.b.
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TDIUprofessori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar doʻstligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
**Axmedov Ikrom Akramovich,** i.f.d., TSUE professori
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoʻja oʻgʻli,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Utayev Uktam Choriyevich,** OʻzR Bosh prokuraturasi boshqarma boshligʻi oʻrinbosari
**Ochilov Farxod,** OʻzR Bosh prokuraturasi IJQKD boshligʻi
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** i.f.d., TDIU professori
**Musayeva Shoira Azimovna,** SamDu IS instituti professori
**Cham Tat Huei,** ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamgʻarmasi ijrochi direktori oʻrinbosari
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** t.f.f.d.(,PhD) TAQU katta oʻqituvchisi
**Djudi Smetana,** p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
**Krissi Lyuis,** p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
**Ali Konak (Али Кўнак),** i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
**Glazova Marina Viktorovna,** i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon oʻgʻli,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung,** honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten,** member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich,** DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich,** DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna,** PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich,** CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich,** DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich,** DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli,** DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod,** Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich,** DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva,** professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei,** PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna,** CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., profesor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** i. f. n., TDAU dotsenti
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**G'afurov Doniyor Orifovich,** p.f.f.d., (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** i.f.d., TMI dotsenti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o'qituvchisi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

Innovatsion siyosatni amalga oshirish yo‘nalishlari....16
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, Zaynutdinova Umida Djalolovna**

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar....21
**Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich**

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari....24
**Abdullayev Farxod Ozodovich**

Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari....35
**Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna**

Bevosita soliqlar ma’muriyatchiligi....41
**Idirisov Alisher Otajonovich**

Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribalari....46
**Abdiev Jaxongir Ibragimovich**

Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili....53
**Djumaniyazov Marks Quranbaevich**

Pestel tahlili – muvaffaqiyatli investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi....60
**Shaislamova Nargiza Kabilovna**

Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari....67
**Asrorov Azizbek Isomiddin o‘g‘li**

The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy....74
**Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirovna**

O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiyasi....79
**Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich**

Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnolgiyalardan foydalanishning nazariy asoslari....87
**Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich**

Международный опыт стимулирования инновационной деятельности....93
**Абдиуалиева Гулзада Азатовна**

How does foreign direct investment promote economic growth?....98
**O‘tkirova Bonu Azamat kizi**

Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi....102
**Umarov Abduvaxob Tursunovich**

Technological Innovations of Electronic Payment Systems....107
**Mirkomil Boboyorov Murodullaevich**

Ta’lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o‘rni va ahamiyati....115
**Imomov Xolmurod Norqul o‘g‘li**

O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili....119
**Maksudov Abdumalik Xodievich**

Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish....124
**G‘ofurov Temur Baxrom o‘g‘li**

Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi ........ 129
**Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li**

Turizmda innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari........ 133
**Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li**

Davlat budjetining soliqli daromadlari tahlili ........ 139
**Abduraimova Nigora Radjabovna**

Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon ........ 143
**To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich**

O'zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida) ........ 151
**Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich**

Состояние туристической инфраструктуры Ташкентской области........ 156
**Гаппарова Майрамхон Зафар кизи**

Sanoatlashuvning ekologik ta'siri va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asoslari ........ 161
**Nosir Maxmudov, Lola Azimova**

Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning nazariy asoslari ........ 167
**Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan**

Davlat budjeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish........ 173
**Sherxon Tuychiyev**

Savdo korxonalarida ta'minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari........ 177
**Ergashev Jahongir Baxodirovich**

Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari ........ 180
**Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiev Hasan Abdigapparovich**

Budjet tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari........ 184
**Azizova Zilola Lochin qizi**

Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahalliylashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari ........ 191
**Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich**

Suv ekologiyasining asosiy yo'nalishi va uning fandagi o'rni........ 200
**Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi**

Анализ прибыли агропромышленности ........ 204
**Гафурова Азизахон Фатиховна**

Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach........ 209
**Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloyevna**

An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries ........ 213
**Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli**

Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruv faoliyatining roli ........ 216
**Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich**

Значение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса........ 221
**Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич**

Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi........ 225
**Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich**

Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari........ 230
**Mirzayev Kobil Nosirjonovich**

Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari........ 236
**Ismailov Dilshod Anvarjonovich**

Innovasion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari ..... 242
**Zarina Ashurova**

Social media marketing strategies for small businesses ..... 247
**Mannonov Shahzod Istam ugli**

Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o'zaro ta'siri ..... 250
**Rajapov Shuxrat Zaripbaevich**

Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari ..... 258
**Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich**

Суть и значимость инновационных технологий в региональном управлении ..... 266
**Муминов Фазлиддин Хусниддин угли**

SWOT-анализ использования социальных сетей в туристической индустрии узбекистана ..... 279
**Касимова Зилола Гуламиддиновна**

Germaniya tajribasidan foydalanish orqali o'zbekistonda turizm sohasidagi kadrlar salohiyatini rivojlantirish masalalari ..... 287
**Xamidova Mo'tabarxon Abdumalik qizi, Ochilov Akram Odilovich**

Blockchain texnologiyasining bank operatsiyalari xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni ..... 291
**Mirpulatova Luiza Mansurovna**

Tijorat banklarini reytingini aniqlashda bankometr modelidan foydalanish yo'llari ..... 294
**Karabaev Nodir Abduhamidovich**

Значение business city как инфраструктурного объекта ..... 303
**Солиева Умида Алишер кизи**

The potential for the development of wage labor as a factor ..... 308
**Usmanov Ilkhom Achilovich**

Ways to improve the organizational and economic mechanism of business tourism in Uzbekistan ..... 312
**Musayeva Shoira Azimovna, Usmanova Dilfuza Ilkhomovna**

Kichik biznes subyektlarining faoliyatini baholashning metodologik asoslari ..... 318
**Mavrulov Ravshan Ne'matjonovich**

Kichik korxonalarni rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanish ..... 324
**Ergasheva Nigora Abdigapparovna**

Mamlakatimizda intensiv baliqchilikni rivojlantirishning dolzarb masalalari ..... 328
**Mamatqulov Nurbek O'razali o'g'li**

Уменьшение выбросов парниковых газов и переход к возобновляемым источникам энергии ..... 331
**Р.Т. Шомуродов, И.И. Бахадиров, Р.Т. Умаров, И.Ш. Жамолиддинова**

Ipoteka bozorida investision muhitni yaxshilash yo'llari ..... 341
**Abdullaev Muhammadsodiq Isroil o'g'li**

Muammoli kreditlar: yechimlari va istiqbollari ..... 346
**Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich**

Ishlab chiqarish korxonalarida risklarni boshqarish va ta'sirini baholash uslubiyati ..... 351
**Muxitdinov Shuhrat Ziyavitdinovich**

Zamonaviy sharoitda PR (jamoatchilik bilan aloqalar)ning mazmuni va ahamiyati ..... 356
**Ergasheva Fotimaxon Ibragimovna**

O'zbekiston moliya tizimida mahalliy moliyaning o'ziga xos xususiyatlari ..... 361
**Xikmatillayeva Dildora Shavkat qizi**

Rahbar kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish koʻnikmalarini takomillashtirish ........ 366
**Shadiyev Sherzod Fayzullayevich**

Mamlakatimizda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi va uni prognoz qilish usullari........ 371
**Sobirova Nigora Baxtiyor qizi, Anvarova Malika Baxtiyor qizi**

Improvement of marketing communication strategies in chemical industry enterprises ........ 375
**Muminova Dildora Dilshadovna**

Mikromoliya tashkilotlarida islom moliyaviy instrumentlarini joriy etishni takomillashtirish........ 380
**Axmedova Oʻgʻilshod Musurmonqul qizi**

Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflashning nazariy jihatlari........ 384
**Qodirova Nafisa Ilhomovna**

# TIJORAT BANKLARIDA AKTIVLAR SIFATINI TASNIFLASHNING NAZARIY JIHATLARI

**Qodirova Nafisa Ilhomovna**
O'zbekiston Respublikasi
Bank-Moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklarining aktivlari sifatini amalga oshirishning asosiy jihatlari hamda aktivlar sifatining muhim elementlari, aktivlar sifatining bank faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar tadqiq etilgan. Shuningdek, tijorat banklari aktivlari sifatini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, bank xizmatlari, aktivlar sifati, aktivlar sifatining tasniflanishi, bank sektori, aktivlar samaradorligi, moliya bozori, iqtisodiy rivojlanish.

Abstract: the article examines the main aspects of the implementation of the quality of assets of commercial banks and the important elements of the quality of assets, the factors affecting the quality of assets in the banking activity. Recommendations aimed at improving the quality of assets of commercial banks have also been developed.

Key words: commercial banks, banking services, asset quality, asset quality classification, banking sector, asset efficiency, financial market, economic development.

Аннотация: в статье рассматриваются основные аспекты реализации качества активов коммерческих банков и важные элементы качества активов, факторы, влияющие на качество активов в банковской деятельности. Также разработаны рекомендации, направленные на улучшение качества активов коммерческих банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, банковские услуги, качество активов, классификация качества активов, банковский сектор, эффективность активов, финансовый рынок, экономическое развитие.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan bank-moliya tizimini isloh qilish va mustahkamlash bo'yicha maqsadli strategiyalar banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, iqtisodiyotni kreditlash ko'lamini kengaytirish, ko'rsatilayotgan bank xizmatlari spektorlarini ko'paytirish, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda bank tizimining rolini oshirish imkonini beradi. Bank xizmatlari sifatini yanada oshirish hamda tadbirkorlik subyektlari bilan to'laqonli hamkorlik munosabatlarini o'rnatish uchun tijorat banklarining ish uslublarini tubdan yaxshilash, aholi va xo'jalik subyektlarining bank tizimiga ishonchli institutsional hamkor sifatida qarash lozim. Xalqaro bank aktivlari samaradorligidagi turli xil nomutanosibliklar xalqaro bank sektoridagi inqirozga va xalqaro iqtisodiy o'sishning pasayishiga olib keladi. Bu, o'z navbatida, bir qator rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarishning pasayishiga, ishsizlikning o'sishiga va banklarning bankrotligiga olib keldi. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro miqyosda bank tizimining mexanizmlarini o'rganish, xalqaro bank aktivlarini shakllantirish va taqsimlash tamoyillarini o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ijtimoiy jamiyatda tovar-pul munosabatlarining paydo bo'lishi bank amaliyoti shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratdi. Zero tovar pul munosabatlari amal qilgan har qanday ijtimoiy-iqtisodiy jamiyatda bankni vujudga kelishi va bank munosabatlarini amal qilishini hamda bu jarayon muttasil rivojlanib borishini taqozo etadi. Ayrim adabiyotlarda bank deganda obyekti, subyekti va ta'minotiga nisbatan bank tomonidan shubha paydo bo'lgan bank xizmatlari tushunilsa (Karapetyan, 2011), ayrim adabiyotlarda muammoli investitsiyalar deganda "qarz oluvchi bir yoki bir necha to'lovlarni amalga oshirmaganligi yoki investitsiya ta'minoti qiymatining pasayishi investitsiyani muammoli investitsiyalar turkumiga o'tishini anglatadi" (Burkova, 2010) deya ta'rif berilgan. Ushbu oxirgi ta'rif muammoli investitsiyaga berilgan ta'riflarning ichida to'liqroq talqin etilgan deyishimiz mumkin. Chunki bunda muammoli investitsiyani yuzaga chiqishiga sabab bo'ladigan investitsiya risklari bilan bog'langan hamda investitsiya kategoriyalari ajratib ko'rsatilgan. Ammo hozirgi paytda mazkur ta'rif o'z mohiyatini yo'qotdi, deb o'ylaymiz. Sababi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 14-iyuldagi "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi 2696-sonli Nizomi qabul qilinganidan so'ng investitsiyalarning tasniflanishida o'zgarishlar ro'y berdi. Agar bankdan investitsiya olgan mijoz investitsiyani o'z vaqtida qaytara

olmasa, garovga qo'ygan ta'minotdan mahrum bo'lishi mumkin, o'z navbatida, tijorat banklari uchun investitsiya riski oshib ketadi. Bank tomonidan berilgan investitsiya riskining xavfsiz darajasini ta'minlash maqsadida investitsiya oluvchi jismoniy yoki yuridik shaxs turli shakldagi mol-mulklarni garov ta'minoti sifatida banklarga taqdim etadi. Umumiy holda bank investitsiya bo'yicha garov ta'minotini baholash jarayonida uchta tomon ishtirok etadi va ular bank, baholovchi tashkilotlari va investitsiya oluvchilardir (Balabanov, 2009). Bu jarayonda garov ta'minoti, asosan, dastlab investitsiya berish jarayonida qarab chiqiladi. Rossiya adabiyotlarida ayrim mualliflarning ta'kidlashicha, muammoli investitsiya deganda obyekti, subyekti va ta'minotiga nisbatan bank tomonidan shubha paydo bo'lgan investitsiya tushuniladi (Lavrushina, 2008). Ularning qarashlaricha, nostandart, dargumon va ishonchsiz investitsiyalarni ya'ni muddati o'tmagan joriy investitsiyalardan tashqari barcha investitsiyalar, shu jumladan, asosiy to'lov bo'yicha qisqa muddatli bo'lsa ham qarzdorlikka ega bo'lgan hamda investitsiya shartnomasi shartlarini o'zgartirmasdan hech bo'lmasa bir marotaba qayta rasmiylashtirilgan investitsiya lar muammoli deb tushuniladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bizning fikrimizcha, bank aktivlari samaradorligini oshirish nafaqat bank tizimini, balki butun iqtisodiyotni rivojlantirish masalasidir. Ushbu jarayonda tijorat banklarida aktivlar samaradorligining pasayishi vakillik hisobvaraqlarida resurslarning yetishmasligiga, bankning moliya bozoridagi mavqeyining pasayishiga, mijozlarning bankka bo'lgan ishonchsizligini keltirib chiqarishi mumkin. Banklardagi aktivlar sifatining pasayishi iqtisodiyotning turli sohalarida ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishiga olib keladi, bu, o'z navbatida, ishsizlikning ko'payishiga olib keladi. Bundan tashqari, inqirozlarning ta'siri shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy inqirozning bank amaliyotiga salbiy ta'siri ma'lum bir mamlakat yoki mintaqa bilan cheklanib qolmay, balki butun jahon iqtisodiyotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, bugungi kunda banklar amaliyotida bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining tavsiyalari asosida stress testlari orqali bankning moliyaviy holatini baholashning ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu usul likvidlik darajasi, operatsion faoliyat, bozor qiymati, boshqaruv va xatarlarni baholash tizimi kabi omillarning aktivlar samaradorligiga sezilarli ta'sirini aniqlashga imkon beradi.

Jahon banklari amaliyotiga ko'ra sog'lom aktivlar hajmining oshib borishi banklar rivojlanishining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Xususan, "Banks around the World" va "S&P Global Market Intelligence" nashrlarining hisobotlariga ko'ra, "jahon banklari aktivlarining asosiy ulushi 100 ta bank, jumladan, Xitoy – 20 ta, AQSh – 10 ta, Buyuk Britaniya – 6 ta, Fransiya – 6 ta, Yaponiya – 9 ta, Germaniya – 6 ta, Kanada – 5 ta, Janubiy Koreya – 5 ta, Braziliya – 5 ta, Avstraliya – 4 ta, Italiya – 3 ta, Ispaniya – 3 ta, Niderlandiya – 3 ta, Singapur – 2 ta, Shvetsariya – 2 ta banklari hissasiga to'g'ri kelmoqda"[1].

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, jahon banklari aktivlari shakllanishidagi ayrim nomutanosibliklar xalqaro miqyosda banklar tarmog'ining inqirozga yuz tutishi, xalqaro iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarining pasayishi xavfini oshiradi. Shu bois xorijiy banklar va xalqaro moliya institutlari raqamli bank konsepsiyasini yo'lga qo'yish, aktivlarni maqbul sohalarga joylashtirishning ilg'or innovatsion texnologiyalarga asoslangan usullarini rivojlantirish, aktivlarni himoyalashning mukammal tizimlarini joriy etish, bank tavakkalchiliklarini baholashning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish kabi jihatlarga alohida e'tibor qaratmoqda. Shuningdek, jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari tomonidan globallashuv sharoitida xalqaro miqyosda bank tizimining amal qilish mexanizmlari, xalqaro bank aktivlarining shakllanish va taqsimlanish tamoyillarini tadqiq etish kabi ilmiy tendensiyalar faollashmoqda.

Ushbu sohada iqtisodchi olimlarniga fikriga nazar tashlaydigan bo'lsak, N.I. Bikanova va S.Yu. Rudavinalarning fikricha, "Aktivlar sifatini yaxshilash uchun kredit tashkilotlari tegishli tadbirlarni amalga oshirib turishlari lozim. Eng ustuvor yo'nalishlardan biri bu aktivlarni diversifikatsiyalash bo'lib, ushbu usul kredit portfelida aktivlar va passivlarni samarali taqsimlashni nazarda tutadi". Bu nuqtayi nazar bugungi kunda o'z samarasini berayotgan yo'nalish desak bo'ladi, chunki alohida qarz oluvchilarning kreditini to'lay olmasligi bilan bog'liq bo'lgan kredit xavfini kamaytirish maqsadida aktivlarni turli sohalarda faoliyat ko'rsatadigan ko'p sonli qarz oluvchilar orasida joylashtirish kredit qaytmasligi xavfini bir necha barobarga kamaytiradi. Lekin bu yerda ham bankning ichki audit va kredit bo'limlari avtomatlashtirilgan dasturlar yordamida kredit portfeli holatining monitoringini turli mezonlarga tayangan holda doimiy amalga oshirib borishlari maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblayman.

Shuningdek, M.N. Avseykoning xulosasiga ko'ra, "bank balansining aktiv va passiv hisob-varaqlaridagi mablag'lar aylanmasi va erta ogohlantirish ko'rsatkichlarini tahlil qilish asosida nazoratni amalga oshirish zarur".

1 Baydaulet Y., (2019) "Islomiy moliya asoslari", O'zbekiston, "O'zbekiston" NMIU. (Baydaulet Y., (2019) "Fundamentals of Islamic Finance" / Baydaulet Y., Khasanov Kh. Jorayev B. / "Uzbekistan" PH, Uzbekistan).

Ushbu fikrning e'tiborli jihati shundaki, ushbu erta ogohlantirish signallari dasturiy ko'rinishda bank tizimida avtomatlashtirilgan holda joriy etilib to'liq faoliyat ko'rsatadigan bo'lsa, bankda kredit portfelini tahlil qilishda potensial muammoga aylanishi mumkin bo'lgan kreditlarni erta aniqlash imkoniyatlari sezilarli darajada oshadi. Masalan, aytaylik bank tomonidan kredit olgan mijozlarning hisobraqamlaridagi aylanmalarni analiz qilishda tegishli normalar o'rnatgan holda, ushbu normalar asosida mijozlarning ma'lum bir davr ichida amalga oshirgan kredit aylanmalarini tahlil qilib turib ularni uch toifaga bo'lsa bo'ladi. Masalan: qizil toifa bu – mijozning bir oylik tushumi uning oylik kredit to'lovini 50 foizidan kam, sariq toifa bu – mijozning bir oylik tushumi uning oylik kredit to'lovini 100 foizidan kam, yashil toifa bu – mijozning bir oylik tushumi uning oylik kredit to'lovini 125 foizidan ko'p.

D.M. Xloptsovning fikricha: "Bank aktivlari portfelini boshqarishning asosiy maqsadi bu resurslarni maksimal foyda keltiradigan, likvidlik darajasi belgilangan va chegaralangan darajali tavakkalchiligi mavjud aktivlarga joylashtirish bilan birga banklarning asosiy vazifalaridan biri, joriy aktivlar qiymatini maksimallashtirish va yakuniy moliyaviy natijalarni optimallashtirish bo'lishi kerak ekan". Ushbu olimning "aktivlar qiymatini maksimallashtirish" degan fikriga qo'shilmayman, sababi agar kredit tashkiloti katta foydaga erishish ilinjida kredit foizini oshiradigan bo'lsa, natijada bu kredit oluvchining xarajatlarining oshishiga olib keladi, uning ishlab chiqarayotgan mahsuloti qiymatining oshishiga va uni sotilishini sekinlashishiga, mahsulot sotishdan tushgan tushumlarning va biznesning rentabelligining keskin tushib ketishiga sabab bo'ladi. Buning natijasida esa kredit oluvchida u olgan kredit qarzini va unga hisoblangan foizlarni o'z vaqtida bankka qaytarilishi bo'yicha muammolar vujudga kelishi mumkin. Kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining oshirilishi kreditlarning qaytmaslik xavfini oshishiga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan olimlarning fikrlari o'rganilgandan keyin shu ma'lum bo'ldiki, mazkur olimlarning yondashuvlarida o'xshash jihatlari ko'p, masalan, ularning aksariyati aktivlar sifatini doimiy monitoring qilib borish, kredit portfelini diversifikatsiyasini keng ko'lamda amalga oshirish, bankda aktivlar nazoratini ichki audit xizmati tomonidan doimiy ravishda amalga oshirib turilishi shartligi, kredit ajratilgandan keyin biznes-reja parametrlarini qay darajada bajarilayotganligini doimiy tekshirib turish ta'kidlab o'tilgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur fikrlar, albatta, bankda aktivlar sifati ustidan nazoratni kuchaytirish va aktivlar sifatini yaxshilashga o'z hissasini qo'shadi. Banklarda aktivlar bilan ishlashning asosiy prinsiplari banklar tomonidan har yilning boshida ishlab chiqiladigan kredit siyosatida atroflicha belgilangan bo'ladi. Mazkur kredit siyosatining maqsadi, vazifalari hamda amal qilish sohasi aniq ko'rsatiladi. Bunda kredit siyosatining maqsadi sifatida:

- bankning samarali, daromadli kredit faoliyatini ta'minlash, kredit risklarini nazorat qilish va ularni kamaytirish vositalaridan foydalanish, shu jumladan, taqdim etilayotgan kreditlarning turlari va ular bo'yicha qabul qilinayotgan ta'minotlar bo'yicha diversifikatsiya qilish, bankning kredit portfeli sifatini yaxshilash va kredit berish jarayonini to'g'ri amalga oshirish;
- kreditlash jarayonida amaldagi qonunchilik va bankning ichki me'yoriy hujjatlari talablari va normalariga muvofiqligini ta'minlash;
- bank aksiyadorlarining huquqlarini himoya qilish, bank aktivlarini samarali boshqarish maqsadida, kredit xizmatlarini ko'rsatirsh jarayonida poraxo'rlik va firibgarlik xavfini kamaytirish, shuningdek, iste'molchilar huquqlariga rioya qilishda jarayonlarning shaffofligini ta'minlash kabi vazifalar belgilab olingan.

Ko'rib chiqilgan maqsadlardan kelib chiqqan holda banklar o'z oldiga kelgusi bir-ikki yil ichida amalga oshiriladigan vazifalarni belgilab olishlari muhimdir. Bu vazifalar, asosan, quyidagicha bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'ladi:

- mijozlarga keng ko'lamli kredit xizmatlari ko'rsatish va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash;
- bank kredit portfelini diversifikatsiya qilish, portfelda yakka tartibdagi tadbirkorlar va yillik aylanmasi 10 million AQSh dollari ekvivalentidan yoki xodimlar soni 500 nafardan oshmagan mikro, kichik, o'rta korxonalar va chakana mijozlar ulushini sezilarli darajada oshirishni nazarda tutadi.

Albatta, bu holatda Markaziy bankning rolini ham eslab o'tishimiz zarur. Biz bilamizki, tijorat banklar o'zlarining kapitalini shakllantirishlari uchun bir nechta manbadan foydalanishadi, ushbu manbalardan asosiysi omonatchilar va kreditorlar tomonidan taqdim etilgan qo'yilmalar va qarzlardir. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 25-moddasida "Banklarning barqarorligini ta'minlash hamda omonatchilar va kreditorlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida banklar Markaziy bank tomonidan belgilanadigan iqtisodiy normativlarga rioya etishlari shart. Banklar o'z kapitali va likvid resurslarini yetarli darajada saqlab turishlari, aktivlarni tasniflash asosida shubhali va harakatsiz aktivlarga qarshi zaxiralarni tashkil etishlari, shuningdek, zarar ko'rish xavfini kamaytirish maqsadida o'z aktivlari diversifikatsiyalanishini ta'minlashlari lozim" deb belgilangan. Shundan kelib chiqib agar banklar kredit portfelidagi aktivlarni noto'g'ri va nosog'lom yo'nalishlarda joylashtirishgan bo'lsa, bu holat bankning bankrotlik holatiga tushib qolishiga sabab bo'ladi va

agar omonatchilar bu holatdan xabardor bo'lishsa, ular bankda o'z mablag'larini saqlashlari unchalik ham xavfsiz emas degan fikrga kelishlari mumkin va zudlik bilan barcha mablag'larini bankdagi hisobraqamlaridan yechib olishga harakat qilishlari va bankka shu talabni qo'yishlari mumkin.

Bank tizimini institutsional rivojlantirish, banklarning aktivlari, shu jumladan, valyuta aktivlari sifatini yaxshilash hisobiga ularning moliyaviy barqarorligini oshirish, bank ishini yanada takomillashtirish va ko'rsatilayotgan bank xizmatlari turlarini kengaytirish lozim. Shuningdek, tijorat banklarida daromad keltiruvchi aktivlarning hajmi va tavakkalchilik darajasining yuqoriligi aktivlar portfelini optimallashtirishni taqozo etadi. Bu borada tijorat banklarida sog'lom aktivlar portfelini shakllantirish modelini amalga oshirishning taklif etilayotgan namunaviy loyihasi, tijorat banklari aktivlari portfelini optimallashtirish tizimi hamda uni rivojlantirish muammolari va chora-tadbirlari dasturi shakllantirilishi lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. PF-158-son, 2023-yil 11-sentyabr. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son.
2. Baydaulet Y., "Fundamentals of Islamic Finance" / Baydaulet Y., Khasanov Kh. Jorayev B. / 2019 y."Uzbekistan" PH, Uzbekistan.
3. Карапетян А.И. Совершенствование инвестиционной политики коммерческих банков в условиях реализации антикризисных программ: автореф. дис…канд. эконом. наук. – Москва, 2011. – С.9-10.
4. Буркова А.Ю. Отличия инвестиционного банкинга от коммерческого и розничного // Управление корпоративными финансами. - 2010. - № 4.
5. Емельянов А.Б. Инвестиционная деятельность коммерческих банков: понятие, виды и значение // Молодой ученый. - 2017. - N° 52. - С. 84-88.
6. Балабанов И. Т. Банковское дело. СПб. : Питер, 2009. 304 с.
7. Банковское дело: Учебник / Под ред. О.И. Лаврушина. М.: Финансы и статистика, 2008. - 563 с.
8. Хлыстова Е.В. Необходимость активизации кредитования банками инвестиционных потребностей экономики. 2017. № 4. С 208-213.
9. Гиблова Н.М. Коммерческие банки как основные участники модернизационных процессов отечественной экономики / Н.М. Гиблова // Банковское дело. - 2012. - № 11. - С.40-43.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Shahzod Avilqulov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 9**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.